

TA'LIM SOHASI TERMINLARI: O'ZBEK VA NEMIS TILLARI MISOLIDA

Astonova Go'zalxon Raxmonaliyevna
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: gozalxonastonova@gmail.com
ORCID ID: 0009-0000-1845-421X
Boybo'tayev Shohjahon Jo'rabek o'g'li
Farg'ona davlat universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541465>

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ta'lim sohasiga oid terminlarning leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Terminlarning shakllanishi, ularning ma'no doirasi, o'zaro semantik munosabatlari hamda til tizimidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, ta'lim terminologiyasining milliy va xalqaro tajribada qo'llanishi, tarjima jarayonidagi muammolar ham ko'rib chiqiladi.

Annotation:

This article examines educational terminology in Uzbek and German languages. It analyzes the origin of terms, their semantic features, fields of usage, as well as similarities and differences between the two languages. Special attention is given to the linguistic characteristics of key pedagogical concepts.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются термины в сфере образования в узбекском и немецком языках. Анализируются происхождение терминов, их семантические особенности, сферы употребления, а также сходства и различия в двух языках. Особое внимание уделяется лингвистическим характеристикам основных педагогических понятий.

Kalit so'zlar: ta'lim, termin, leksik-semantik xususiyat, terminologiya, ta'lim tizimi, atamalar tizimi, tarjima, tilshunoslik

Keywords: education sphere, term, lexical unit, Uzbek language, German language, comparative analysis, pedagogical lexicon, linguistic feature, terminology, translation

Ключевые слова: сфера образования, термин, лексическая единица, узбекский язык, немецкий язык, сопоставительный анализ, педагогическая лексика, лингвистическая особенность, терминология, перевод

O'zbek tilshunosligida ta'lim sohasiga oid leksik birliklarning tadqiqi tilning amaliy nutq qatlamlarini tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu leksika turining o'rganilishi XX asr o'rtalarida boshlanib, dastlab pedagogik uslub, nutq madaniyati va ta'lim tili doirasida ko'proq izchil tahlil etilgan. Mazkur yo'nalishning dastlabki bosqichida pedagogik matnlar, darsliklar va metodik qo'llanmalarda qo'llanayotgan atamalarni tizimlashtirishga e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, 1960–1980-yillarda o'zbek tilining uslubiy qatlamlari o'rganilar ekan, ilmiy-ommabop va o'quv uslubining leksik xususiyatlari ham tadqiq qilingan. Shuningdek, o'qituvchi nutqi, o'quvchilar nutqiga xos til birikmalari, baholovchi leksemalar va o'quv materillari, jumladan, darslik tarkibidagi terminologik birliklarga ham e'tibor berilgan.[1]

Bu davrda nemis tilshunosligida ta'limga oid leksika ko'proq stilistik va leksik-semantik jihatdan baholangan. Uslubshunos olimlar o'quv materiallarida ishlatiladigan terminlar va leksemalarni adabiy til me'yorlari nuqtayi nazaridan tahlil qilishga harakat qilishgan. Shu bois nemis tilidagi ta'limga oid leksema va terminlar ko'p hollarda “ruxsat etilgan” hamda “yaroqli”

birliklar sifatida baholangan, lekin ularning ijtimoiy, pragmatik roli yetarlicha o'rganilmagan. Masalan, o'rganuvchi/o'quvchi/talabalarga nisbatan ishlatiladigan “faol o'rganuvchi/o'quvchi/talaba”, “bilim saviyasi past”, “oralik nazorat” kabi birikmalar uslubiy jihatdan neytral bo'lishi kerak degan talab ilgari surilgan, biroq bu terminlarning real diskursdagi ta'siri baholanishdan chetda qolgan.

Mustaqillik yillaridan keyin o'zbek tilshunosligida yangi ilmiy yondashuvlar, xususan, funksional-pragmatik, kognitiv, diskursiv va lingvomadaniy metodologiyalar paydo bo'ldi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sohasidagi leksik birliklarga ham yangicha nazar bilan qarashni taqozo etdi. Shuningdek, G.Isakova o'z tadqiqotida ta'limga oid qanotli iboralar, maqollar va hikmatli so'zlarni tahlil qiladi. Ular ta'lim-tarbiya jarayonida didaktik vosita sifatida ishlatiladi va madaniy konnotatsiyaga ega bo'lgan obrazli birliklar sifatida ahamiyat kasb etadi[2]. G.Isakova bu kabi birliklarni semantik tahlil bilan bir qatorda ularning stilistik roliga ham alohida e'tibor qaratib, o'qituvchi nutqidagi obrazlilik va ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi omil sifatida baholaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda, shuningdek, o'quv materiallarida qo'llangan leksik hamda lug'aviy birliklar majmuyi baholash mezonlari, metodik tushunchalar va o'quv dasturlarida qo'llanadigan terminlarning korpus lingvistikasi asosida statistik va pragmatik tahlili ham amalga oshirilmogda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalish bo'yicha hali tizimli tasnif va elektron terminologik korpuslar yetarlicha shakllanmagan. Hozirgi paytda ba'zi loyihalar doirasida ta'limga oid korpuslar tuzish bo'yicha ishlar boshlab yuborilgan. Bu esa sohaga oid birliklarning korpusga asoslangan tahlilini kelajakda yo'lga qo'yish imkonini beradi[3].

O'zbek tilshunosligida ta'limga oid leksika dastlab stilistik va uslubiy nuqtayi nazardan yoritilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda funksional-pragmatik, sotsiolingvistik va semantik-metaforik yondashuvlar bilan boyitildi. Bu esa bu leksika turini faqat pedagogik nutqning vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy tafakkur va madaniyatni ifodalovchi til qatlamlaridan biri sifatida o'rganish zaruratini tug'dirmogda.

Nemis tilshunosligida ta'lim sohasiga oid leksik birliklarning o'rganilishi uzoq tarixiy va ilmiy an'anaga ega bo'lib, ushbu yo'nalish asosan lingvodidaktika doirasida shakllangan. Lingvodidaktika – bu til va til o'rgatish nazariyasini birlashtirgan fan sifatida, o'quv jarayonida til vositalarining qanday ishlatilishini nazariy va amaliy jihatdan o'rganadi. Mazkur yondashuv nemis tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida rivoj topdi va ta'limga oid lug'aviy birliklarning tahliliga asosiy metodologik poydevor bo'ldi.

Germaniyada bu yo'nalish asosan Fachdidaktik Deutsch (nemis tilini o'qitish metodikasi) va Sprachdidaktik (lingvodidaktika) fanlarida chuqur tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv asosida o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayoni, dars materialidagi leksik birliklar, o'qituvchining til uslubi, sinfdagi til muhitining lingvistik tavsifi, baholovchi va motivatsion nutq aktlari chuqur o'rganiladi. D.Schmitt ta'lim leksikasining lingvodidaktik tahlilini ilgari surar ekan, bu turdagi birliklar o'z tarkibida didaktik semantika, stilistik neytrallik, o'rgatuvchanlik funksiyasi, madaniy signal kabi komponentlarni mujassamlashtirganini ta'kidlaydi[4].

Ta'limga oid lug'aviy birliklar, ayniqsa, nemis tilida “Bildungslexik/ ta'limga oid lug'aviy birliklar”, “unterrichtssprachliche Einheiten/darsdagi nutqiy birliklar”, “pädagogische Formeln/ Pedagogik nutq andozasi” kabi nomlar bilan yuritiladi. Ular nafaqat terminologik birliklar, balki sinf/auditoriya ichida pedagogik vazifalarni bajaradigan *tartibga solish, rag'batlantirish, baholash, yo'llash* kabi til birliklarini ham o'z ichiga oladi. Masalan, nemis tilidagi “Mach bitte weiter!/Davom eting!”, “Sehr gut gemacht!/Barakalla!”, “Schreib das bitte auf!/ Iltimos, buni yozib oling!” kabi ifodalar standart didaktik formulalardir va o'quvchilar bilan kommunikatsiyada yuqori chastotali

birliklar hisoblanadi. Ular stilistik jihatdan neytral, ammo funksional jihatdan boy bo'lib, ta'lim jarayonining turli bosqichlarida pedagogik maqsadlarga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- 1.Хайитов Х. Ўзбек тилида услублар ва услубий воситалар. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 187 б
2. Қурбонов Ғ. Ўқитувчи нутқида қўлланиладиган баҳо берувчи лексик бирликларнинг семантик ва прагматик хусусиятлари: филол. фан. номз. дис. – Тошкент, 2015. – 145 б.
3. Исақова Г. Таълим ва тарбияга оид қанотли иборалар // Interpretation and Researches. – 2024. – 18 февр. – Режим доступа: <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2072>
4. Абдуллаева Н. Мактаб дарсликларигадаги фанга оид атамаларнинг ўқувчилар учун қабул қилиниши // Филология масалалари. – 2020. – № 2. – Б. 87–91